



TURK NASRI VA NAZMIDA OBRAZ TALQINI

Suvonqulova Laylo Mahmud qizi,

Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti

(93 085-02-01)

E-mail: laylosuvonqulova9@gmail.com

Annotatsiya: Har bir millat adabiyotida o'ziga xos tushunchalar, ilmiy qarashlar va atamalar mavjud. Biroq ularning barchasi boshqa millat adabiyoti bilan integratsiyaga kirishgan holatda rivojlanish bosqichlarini bosib o'tadi. Xususan, turk adabiyoti o'zbek adabiyoti bilan qardoshlik xususiyatiga ega ekanligini hisobga olgan holatda obraz tushunchasini talqin etishda turk adabiyotiga ham nazar tashlashni joiz deb bildik va ushbu maqolada turk adabiyotida obrazning o'рни va bu tushunchaga turk adabiyotshunoslarining qarashlarini tahlil qildik.

Kalit so'zlar: Turk adabiyoti, obraz, tasvir, nasriy asar, she'riyat, integratsiya, Yevropa adabiyoti, tasavvur, tasnif.

Аннотация: Литература каждого народа имеет свои понятия, научные взгляды и термины. Однако все они проходят этапы развития, когда они интегрируются с литературой других народов. В частности, учитывая тот факт, что турецкая литература имеет родство с узбекской литературой, мы сочли допустимым взглянуть на турецкую литературу в трактовке понятия образа, и в данной статье мы



проанализировали роль образа в турецкой литературе и взгляды турецких литературоведов на это понятие.

Ключевые слова: Турецкая литература, образ, прозаическое произведение, поэзия, интеграция, европейская литература, воображение, классификация.

Annotation: The literature of each nation has its own concepts, scientific views and terms. However, all of them go through stages of development when they are integrated with the literature of other nations. In particular, considering the fact that Turkish literature has a sisterhood with Uzbek literature, we considered it permissible to look at Turkish literature in the interpretation of the concept of image, and in this article we analyzed the role of image in Turkish literature and the views of Turkish literary scholars on this concept.

Key words. Turkish literature, image, image, prose work, poetry, integration, European literature, imagination, classification.

Kirish. Zamonaviy va an'anaviy turk adabiyotida obraz asosiy tasvir vositasi sifatida talqin etiladi. Ushbu tushunchani turk adabiyotshunoslari faqatgina strukturaviy tasnif qilibgina qolmay, tematik tasnifga ham e'tibor qaratganlar: "Obraz (Imaj)-Rasm. Qisqartirilgan mazmunga ega bo'lgan, talqin va tushuntirish uchun mos bo'lgan ko'p qatlamli hikoya. Obrazda so'z til ko'rsatkichi doirasidan chiqib, tafakkur va tuyg'uni faollashtiruvchi timsolga aylanadi, stilizatsiya va adabiylashtirish ham shunga asoslanadi" [1: 226]. Bu ta'rifda obraz atamasining asosiy xususiyati qayd etilgan. Haqiqatan ham bir so'z obraz holida asarga kiritilganda uning grammatik xususiyatlari o'z-o'zidan orqa pardaga chekinadi. Faqatgina uning o'quvchi tarafidan qanday idrok etilishi, psixologik va



estetik ta'siri asosiy o'rinni egallaydi. Uning o'quvchi ongiga estetik ta'siri esa, albatta, ijodkorning mahorati va stiliga bog'liq.

Asosiy qism. Obraz tushunchasi, uning nazariy va amaliy tahlili, she'riy va nasriy asarlarda qo'llanilish uslublari haqida turk adabiyotshunosligida ko'plab tadqiqotlar qilingan bo'lib, ulardagi ilmiy qarashlarda, asosan, badiiy obraz tahliliga e'tibor qaratiladi. Gürsel Aytacning "Genel edebiyat bilimi" (Umumiy adabiyot) kitobi, Tarık Özcaning "Şiir sanatında İmajın yeri-önemi ve bunun Cemal Süreyanın şiir dünyasına uygulaması" (She'r san'atida obrazning o'rni va uning Cemal Süreyaning she'r dunyosida qo'llanilishi), Fatih Yeşilning "Ahmet Hamdi Tanpınarın şiirlerinde imaj türleri" (Ahmet Hamdi Tanpınarning she'rlarida obraz turlari) kabi asarlarda, Ertan Enginining "İmogoloji" (Imagologiya) nomli maqolasida turk adabiyotidagi ma'lum bir asarlarning obraz tizimi va ularning qirralari ochib berilgan. Albatta, asarlardagi obrazlar tasvirida turk xalqining madaniyati, ijtimoiy hayoti va shu xalqning xarakter-xususiyatlari ham o'ziga xos tarzda aks etadi. Biroq yuqorida tilga olgan izlanishlarda Yevropa adabiyotining turk adabiyotiga ta'siri o'ta sezilarli darajada ekanligini ko'rish mumkin. Turk adabiyotshunoslari obraz tahlilida ko'plab o'rinlarda Yevropa olimlarining fikrlarini dalil sifatida keltirib o'tgan. Bu esa integratsiya jarayonining amaliy ahamiyatini yanada oshiradi. Ayniqsa, Rousseau-Pichois, Leerssen, Joep, Beller, Manfred kabi Yevropa adabiyotshunoslarining izlanishlari va qarashlari turk adabiyotida obraz istilohining yanada keng qamrovli tushuncha bo'lishiga sababdir.

Turk qiyosiy adabiyotshunosligida ham ushbu terminga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, "obrazshunoslik" deb tarjima qilinuvchi imogologiya termini ham fanga kiritilgan. Bu sohaning fanga kiritilishiga asosiy sabab – qiyosiy adabiyotshunoslik bilan shug'ullanuvchi olimlarning izlanishlaridagi nazariy fikrlarning yagona bir asosga tayangan holatda bo'lishidir. Bunda fikrlar, nazariyalar xilma-xilligi va qarama-qarshiligiga barham berish hamda umumiy nazariyalar orqali asar tahlilini amalga oshirish. Ertan Engin o'z



maqolasida Leersen, Joep, Beller kabi olimlarning obrazga “shaxs, guruh, irq yoki millatning diskursiv yoki aqliy tasviri” tarzidagi ta’rifini ta’kidlarkan, “Obrazlar, ayniqsa, xarakterologik tuzilish, temperament yoki ruhiy fazilatlar bilan bog’liq. Bu fazilatlar ko‘pincha yuklangan shakllarga aylanadi, ijtimoiy sohalar bilan bog‘lanadi va jamoaviy kayfiyatda aks etadi”, – deb tasvirlaydi [2: 58]. Ko‘rinadiki, qiyosiy adabiyotshunoslikdagi obrazda o‘sha millatning xarakter-xususiyatlari, dunyoqarashi, ijtimoiy holati aks etgan bo‘ladi. Bu esa boshqa millat o‘quvchisi mutolaa jarayonida shu asardagi obrazlar orqali ushbu xalqning ijtimoiy holatini his etishiga, ruhiyatini anglashiga, davr va millat muammolari bilan tanishishiga ko‘maklashadi.

Badiiy asarda obraz orqali ijtimoiy hayotdagi voqeliklarni tasvirlash, insonlarning yashash tarzi, orzu umidlarini ifodalash, ruhiy holat manzaralari, qahramonlarning ichki kechinmalarini tasvirlashda obrazlarga murojaat etiladi. Masalan, turk adabiyotining nodir asarlaridan biri Reşat Nuri Güntekinning “Çalıkuşu” asaridagi Feride, Ahmet Lutfi Kazancining “Üvey anne” (O‘gay ona) asaridagi Fotima obrazi orqali shu millat ayollarining xarakterlari, ruhiy kechinmalari yaqqol ko‘rsatib berilgan. Bu asardagi obrazlar yozuvchining shunchaki hayoliy to‘qimasi emas, aksincha hayotda turli to‘siqlariga uchragan, millatni yorug‘likka yetaklashga yo‘lida fidoyilik ko‘rsatgan kishilarning badiiy umumlashma obrazidir. Biroq Reşat Nuri Güntekinnig asosiy maqsadi asar qahramonining mardliklarini ko‘rsatib berish emas. “... Yozuvchi tomonidan yaratilgan o‘qituvchi obrazida o‘ziga xos, favqulotta xususiyatlar yo‘q, u oddiy inson. Go‘yo kitobxonga o‘qituvchilarda ham his-tuyg‘ular, o‘ziga yarasha hayot tashvishlari borligini eslatishga harakat qilgan kabi yondashgan muallif o‘qituvchi obraziga. Har bir insonga tarbiya topgan oilasi, atrofdagi do‘stlari, butun ijtimoiy tuzum o‘z ta’sirini o‘tkazgani kabi o‘qituvchilar ham bu holatdan mustasno emasliklarini ko‘rsatishga intilgan” [3: 73]. Bu kabi holatlar esa obrazning faqatgina tasvir vositasi bo‘libgina qolmay, millat ko‘zgusi ekanligini ko‘rsatib turadi.



Chunki obraz individual tushuncha emas. Umumiylikdan kelib chiqqan xususiylik deyishimiz mumkin.

Turk she'riyatida ham obrazning ko'lami keng. Jemal Sureyyaning she'riy asarlardagi obrazlarni tadqiq etgan Tarık Özcan obrazning she'riy asarlardagi o'rniga shunday ta'rif beradi: "She'riyat san'ati kundalik tilni ulug'lashni maqsad qilgan. Shu sababdan shoir ongsiz dalillarni jumlar daryosiga, so'z kanallariga uyushtiradigan shaxsdir. Iste'dodli shoir til vositalaridan unumli foydalanib, betakror poetik manzara, ta'sirchan, jozibador obraz yarata oladi. Bundan maqsad o'quvchi qalbi, ruhiyati va xotirasiga ta'sir o'tkaza oladigan, kitobxonga estetik zavq bag'ishlaydigan nazmiy durdonani yaratishdir. Har bir san'at yo'nalishida bo'lgani kabi she'riyat maydonida shoir tasavvurning ma'no va talqin tomoniga ham e'tibor qaratadi. She'riyat faqat obrazlarga asoslanmaydi. Unda poetik tasvir ham muhim o'rin tutadi" [4:116]. She'rshunos Fatih Yeshil shoir Ahmet Hamdi asarlaridagi obrazlarni tahlil qilarkan, ularni "aqliy", "obyektiv", "vizual", "harakatlanuvchi" va "eshituvchi" turlarga bo'ladi va ularning har biriga alohida izoh berib o'tadi. Bu turdagi obrazlar shoir she'rlarida ramziylik kasb etgan. Ayniqsa, aqliy obraz aqldagi hissiy idrokka bog'liq ravishda paydo bo'ladi. Bunda o'quvchi ongidagi tasavvur dunyosi ham inobatga olinsa, shoir va she'rxon o'rtasida ruhiy yaqinlashuv, birlik paydo bo'lishi muqarrar. Shu sababli Norman Friedman aqliy obraz yaratishda o'quvchi ongida nima borligiga e'tibor qaratish lozimligini aytadi.

Aytish joizki, ijodkor tomonidan muayyan poetik obraz yaratishda aniq bir chegara bo'lmaydi, ma'lum bir qolip chizilmaydi. Chunki obraz dastlab xayolda, tasavvurda yaratiladi. Bu esa tasavvurlarni bir yerga jamlagan yagona obraz yoxud butun tushunchalarni alohida qilib ko'rsata oladigan obrazlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Aslini olganda, she'riyatda obrazlarning ramziylik xususiyati birinchi o'rinda turadi. Nasriy asarlarda harakatlar, voqealar rivoji va qahramon kechinmalari ifoda etilsa, she'riyatda esa tasvir uslubi va vositalaridan foydalanish mahorati, uni o'quvchiga taqdim etish yo'sini



muhim o‘rin tutadi. Nazmda obrazlar psixologik tasavvurni yaratish yoxud o‘quvchi va muallif o‘rtasida ma’naviy aloqa o‘rnatish maqsadida yaratiladi. She’rdagi obrazlar har jihatdan o‘quvchini hayratga solishi, uning tuyg‘ularini junbushga keltirishi lozim. Shundagina shoir o‘z maqsadiga yetisha oladi. Qisqa qilib aytganda, “obraz o‘quvchi tasavvurini uyg‘otib, qalbini hayajonga solishi kerak” [5: 43].

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, turk adabiyotshunoslari tahlil borasida Yevropa olimlarining mulohazalariga alohida e’tibor qaratgan hamda ulardan oziqlangan holatda ilmiy izlanishlar olib borgan. Xususan, Tarik Özjan ham tematik, ham strukturaviy jihatdan baholangan obraz sog‘lom bo‘lishini aytadi hamda o‘z fikrini dalillash maqsadida Yevropa olimlarining tahlillarini keltirib o‘tadi. Unga ko‘ra, Genri Uells 1924-yilda nashr etilgan “She’riy obraz” asarida obrazlarning tabiatiga ko‘ra bezakli obrazlar, suv ostida qolgan obrazlar, shiddatli obrazlar, radikal obrazlar, keng tarqalgan obrazlar, shov-shuvli yoxud boy obrazlar kabi turlarga, Vladimir Prop esa “ayol obrazi” va “erkak obrazi”ga bo‘lgan holatda tasnif etadi. Şerif Aktaş esa ushbu fikrlardan kelib chiqqan holatda “an’anaviy” hamda “yangi” obrazlar degan ikki turga ajratadi. An’anaviy obrazlar til an’analariga, shu xalqning ma’naviy, madaniy xususiyatlariga o‘zaro chambarchas bog‘liq. Yangi obrazlar esa davr o‘tishi bilan ijtimoiy, madaniy qarashlar o‘zgarishi hamda boshqa millat adabiyoti ta’siri (integratsiya hodisasi) bilan yuzaga keluvchi tasvirlardir. Yangi obrazlarni oddiy kitobxon anglashi juda mushkul. Undagi ma’no-mazmunni anglab yetish uchun o‘quvchining tahlil qobiliyati yuksak darajada bo‘lishi lozim.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillardan ko‘rinadiki, obraz ijodiy tafakkur mahsuli bo‘lib, har bir millat vakilining ichki va tashqi qiyofasi, ruhiyati, orzu-istaklari, maqsadi, isyoni va dardini o‘zida mujassam etadi. Ulardagi o‘ziga xos xususiyatlarni o‘quvchi ko‘ngliga mansub tarzda ifoda etish muallifdan betakror uslub va mahorat talab qiladi. Obraz muallifning so‘z vositasida chizgan suvratidir. Faqat bu chizgining masofasi, ko‘lami va darajasini o‘quvchining tasavvur dunyosi belgilaydi. Turk adabiyotidagi badiiy jihatdan



mukammal asarlar ham betakror chizgi va ta'sirchan kechinmalar tasviri bilan boyitilgan. Xoh nazmiy, xoh nasriy ijod mahsuli markazida muallifning ma'lum bir maqsadi, g'oyasi yotadi. Buni ifodalash uchun esa yozuvchi, albatta, o'sha makon va zamondagi ijtimoiy hayotga, undagi taqdirlarga murojaat etishi kerak. Ular esa asarga obraz bichimida kiradi va asarning o'ziga xos harakatlantiruvchi kuchiga aylanadi.

ADABIYOTLAR:

1. Aytaç Gürsel. Genel edebiyat bilimi. – İstanbul: Papirüs yayınevi, 1999. – 272 s.
2. Engin Ertan. Imogoloji.// Selçuk Üniversitesi Edebiyat Fakültesi Dergisi. №27. 2012. – S. 57-66.
3. Sa'dullayeva Sh. Feride – türk milliy adabiyotidagi ilk ideal o'qituvchi obrazi.// Research Focus International Scientific Journal. Volume 2. 2023. – B. 72-75.
4. Özcan Tarık. Şiir sanatında İmajın yeri-önemi ve bunun Cemal Süreyanın şiir dünyasına uygulaması.// Fırat Üniversitesi Sosyal Bilimler Dergisi, 2003. – S. 115-136.
5. Uzman, Engin. Edebi Tenkitte imaj incelemesinin yeri ve bu metodun Shakespearenin Romeo ile Juliet oynuna uygulanması. // Ankara Üniversitesi Dil ve Tarih Coğrafya Fakültesi Dergisi, 1967. Ocak-haziran. – S. 40-83.
6. Yeşil Fatih. Ahmet Hamdi Tanpınarın şiirlerinde imaj türleri. Yüksek lisans tezi. – İstanbul, 2015. – 116 s.
7. Güntekin Reşat Nuri. Çalıkuşu. – İstanbul: Nurgök matbaası, 1967. – 369 s.